

# ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



# Andijon Viloyatida kichik tadbirkorlik


## Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023 yilning 1 aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 27,2 mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 9 411 taga yoki 25,6 %ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 10,6 birlikni tashkil qildi.



## Yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2023- yilning yanvar - mart **1066** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 53,2 foizga kam demakdir.

## 2018-2023 yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni o'sishining dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda




## 2023- yilning yanvar-mart holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi




# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

## Hududlar bo'yicha 2023-yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng katta ulushi Andijon shaharda **26,5 %** ni tashkil etdi.

## 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami 27 230 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 1066 tani tashkil etdi

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

## Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



2023 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan **10,6** birlikni tashkil etdi.



2023 - yilning 1-aprel holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida **15,4** birlik, Xonaobod shahrida **11,7** birlik, Xo'jaobod **10,9** birlik, Bo'ston tumanida **9,1** birlik, Ulug'nor tumanida esa **9,6** birlikni tashkil etadi.

## Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra

Eng yuqori ko'rsatkich

Andijon shahar  
15,4 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

Andijon tumani  
7,5 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Qo'rg'ontepa tumani  
7,9 birlik.

2023- yilning 1-aprel holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni **har 1000** aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida **15,4** birlik, Xonaobod shahrida **11,7** birlik, Xo'jaobod tumanida **10,7** birlik, Ulug'nor tumanida **9,6** birlik, Bo'ston tumanida **9,1** birlik, Baliqchi tumanida **8,2** birlik, Buloqboshi tumanida **10,5** birlik, Oltinko'l tumanida **8,0** birlik, Andijon tumanida **7,5** birlikni tashkil etadi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

Hududlar bo'yicha 2023-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

■ 2022- y. ■ 2023- y.

235	Oltiariq tumani	200
181	Qo'shtepa tumani	117
188	Bag'dod tumani	194
218	Buvayda tumani	186
204	Beshariq tumani	170
214	Quva tumani	279
184	Uchko'prik tumani	173
192	Rishton tumani	129
123	So'x tumani	120
262	Toshloq tumani	296
218	O'zbekiston tumani	177
193	Farg'ona tumani	160
239	Dang'ara tumani	202
147	Furqat tumani	133
131	Yozyovon tumani	131
638	Farg'ona shahar	810

2023- yilning yanvar-martida yangi tashkilotilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Andijon sh.	22,4
Andijon	12,5
Asaka	8,7
Oltinko'l	7,1
Izboskan	5,6
Shahrixon	5,5
Baliqchi	5,3
Qo'rg'ontepa	4,9
Xo'jaobod	4,7
Marhamat	4,7
Paxtaobod	3,9
Bo'ston	3,8
Ulug'nor	3,5
Buloqboishi	3,5
Jalaquduq	3,2
Xonobod sh.	


2023- yilning yanvar-mart hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Andijon shahri – 22,4 %, Andijon tumani – 12,5 %, Asaka tumani – 8,7 %, Oltinko'l tumani – 7,1 %, Izboskan tumani – 5,6 %, Baliqchi tumani – 5,3 %, Qo'rg'ontepa tumani – 4,9 %, hissalariga to'g'ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020-2023 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2023 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2023 yillar davomida Andijon viloyati bo'yicha jami **6 441** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida **-2 377 (yoki 36,9 %)** ta, sanoat sohasida – **1 375** ta (yoki **21,3 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **-1 201** ta (yoki **18,6 %**) va qurilish sohasida – **399** ta (yoki **6,2 %**) tashkil etilgan.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **2 377** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 5 yilda tashkil etilgan korxonalarining **36,9** %ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikatay mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

## 2023-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi, % da




## 2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da



2023-yil yanvar-mart yilda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **63,8** foizni tashkil qilib, 2022 yilga nisbatan **4,8** foizga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining o'shishi bilan ifodalanadi.

2023-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,2**%ni, yo'lovchi aylanmasida **94,2**%ni, yo'lovchi tashishda **96,8**%ni, savdoda **92,9**%ni, qurilishda **98,2**%ni tashkil etdi.


## Kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha YAHMdagi ulushi, % da




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy tarmoqlardagi hajmi va ulushi dinamikalari

## Kichik tadbirkorlikda sanoat (2018-2023 yil yanvar-mart oylarida)

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, %da




## Kichik tadbirkorlikda qurilish (2018-2023 yil yanvar-mart oylarida)

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, %da




## Kichik tadbirkorlikda investitsiya (2018-2023 yil yanvar-mart oylarida)

Hajmi, mlrd so'mda



Ulushi, %da




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy tarmoqlardagi hajmi va ulushi dinamikalari

## Kichik tadbirkorlikda qishloq xo'jaligi (2018-2023 yil yanvar-mart oylarida)

Hajmi, mlrd so'mda


Ulushi, %da



## Kichik tadbirkorlikda chakana savdo (2018-2023 yil yanvar-mart oylarida)

Hajmi, mlrd so'mda


Ulushi, %da



## Kichik tadbirkorlikda xizmat ko'rsatish (2018-2023 yil yanvar-mart oylarida)

Hajmi, mlrd so'mda

Ulushi, %da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat sohasidagi hajmi va ulushi

2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Andijon sh.	514,1
Baliqchi	480,9
Shahrixon	424,1
Xonobod sh.	344,8
Xo'jaobod	273,2
Qo'rg'ontepa	216,9
Jalaquduq	196,7
Andijon	183,5
Asaka	143,8
Oltinko'l	142,4
Buloqboshi	121,3
Izboskan	110,5
Paxtaobod	101,7
Ulug'nor	88,8
Marhamat	65,0
Bo'ston	61,1

2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 468,8** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (514,1 mlrd. so'm), Baliqchi tumani (480,9 mlrd. so'm), Shahrixon tumani (424,1 mlrd. so'm), Honaobod shahrida (344,8 mlrd. so'm) Xo'jaobod tumani (273,2 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keldi. Bo'ston tumani (61,1 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da**


Andijon sh.	14,8
Baliqchi	13,9
Shahrixon	12,2
Xonobod sh.	9,9
Xo'jaobod	7,9
Qo'rg'ontepa	6,3

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat sohasidagi hajmi va ulushi

2018-2023 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 33,3 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqbooshi tumani (100,0 %), Izboskan tumani (96,7 %), Shahrixon tumani (87,0 %), Baliqchi tumani (84,2 %), Andijon tumani (83,7 %), Oltinko'l tumani (80,7 %), Jalaquduq tumani (67,1 %), Ulug'nor tumani (65,2 %), Xo'jaobod tumani (57,3 %) va Paxtaobod (48,4 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (3,2 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati

2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi, va ulushi




2018-2023 yil yanvar-mart oylarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 196,3** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **98,4** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **100,9** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (**425,7 mlrd. so'm**), Andijon tumani (**148,4 mlrd. so'm**), Shahrixon tumani (**105,9 mlrd. so'm**), Marhamat tumani (**62,1 mlrd. so'm**), Bo'ston tumani (**52,6 mlrd. so'm**), Oltinko'l tumani (**51,7 mlrd. so'm**) hamda Paxtaobod tumani (**44,7 mlrd. so'm**) qayd etildi.

2018-2023 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **2020,7** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **72,2 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **118,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Andijon shahar (**145,1 mlrd. so'm**), Buloqboshi tumanida (**1054,1 mlrd. so'm**), Oltinko'l tumani (**122,5 mlrd. so'm**), Andijon tumani (**88,0 mlrd. so'm**), Shahrixon tumani (**87,1 mlrd. so'm**), Qo'rg'ontepa tumanida (**73,7 mlrd. so'm**) hamda Xo'jaobod tumanida (**69,8 mlrd. so'm**) qayd etildi, eng past hajm bajargan tuman Honaobod shahar (**16,6 mlrd. so'm**) bo'ldi.


2018-2023 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da






# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi faoliyati

2018-2023 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **3 179,3** milliard so'mni yoki jami Qishloq xo'jaligi hajmining **97,5** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **120,3** % ni tashkil qildi.


2018-2023 yil yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Shahrixon tumani (**343,3 mlrd. so'm**), Asaka (**278,3 mlrd. so'm**), Jalaquduq (**252,3 mlrd. so'm**), Marhamat (**247,3 mlrd. so'm**), Andijon (**230,2 mlrd. so'm**), Qo'rg'ontepa (**228,9 mlrd. so'm**) hamda Buloqboshi (**219,9 mlrd. so'm**) tumanlarda qayd etildi.


2018- y.2019- y.2020- y.2021- y.2022- y.2023- y.

2023 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati

2023 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmlarining o'zgarish dinamikasi, trln so'm da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3 778,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,2 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **101,5 %** ni tashkil qildi.

2023 yil yanvar- mart hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

Andijon sh	1 175,4
Shahrixon	444,9
Asaka	257,7
Qo'rg'ontepa	241,9
Andijon	224,0
Paxtaobod	196,4
Marhamat	196,0
Baliqchi	185,8
Izboskan	149,6
Buloqboshi	144,8
Xo`jaobod	140,5
Jalaquduq	128,3
Oltinko`l	109,3
Bo'ston	73,7
Ulug'nor	61,2
Xonaobod sh	49,5


2018-2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (**1 175,4 mlrd. so'm**), Shahrixon (**444,9 mlrd. so'm**), Asaka (**257,7 mlrd. so'm**), Qo'rg'ontepa (**241,9 mlrd. so'm**), Andijon (**224,0 mlrd. so'm**) va Paxtaobod (**1 96,4 mlrd. so'm**) tumanlar hissasiga to'g'ri keldi. Eng past hajm esa Xonaobod shahriga (**49,5 mlrd. so'm**) to'g'ri kelmoqda,

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati

2018-2023 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi, mlrd. so'mda





2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 056,2 mlrd.** so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,2 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **104,2%** ni tashkil qildi. Jami hizmatlardagi kichik biznesning ulushi esa 1,1 % ga ko'paydi,



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Andijon shahri (**1 198,3 mlrd.** so'm), Andijon (**193,2 mlrd.** so'm), Asaka (**191,6 mlrd.** so'm), Baliqchi (**159,7 mlrd.** so'm), Izboskan (**152,0 mlrd.** so'm), Jalaquduq (**144,4 mlrd.** so'm) va Xo'jaobod (**134,7 mlrd.** so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Eng past hajm esa Ulug'nor tumanida (**45,3 mlrd.** so'm) kuzatildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo aylanmasida tutgan o'rni

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar)


2018-2023 yil yanvar-mart oylarida kichik takorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **3,3 million** AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **1,2 %** ini tashkil etdi.

2018- y 2019- y 2020- y 2021- y 2022- y 2023- y.

2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




■ hajm, mln AQSH d, — ulushi, %

2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqboshi hamda Ulug'nor tumanlarida – 100 %, Oltinko'l tumanida – 86,5 %, Andijon tumanida – 84,9 %, Bo'ston tumanida – 84,8 %, Izboskan tumanida – 84,1 %, Shahrixon tumanida – 81,8 %, Xonaobod shahrida – 81,2 % va Marhamat tumanida – 60,6 %, eng past ko'rsatkich Baliqchi tumanida – 5,0 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2018-2023 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **33,7** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **3,6** % ini tashkil etdi.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi


2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida – 100,4 %, Jalaquduq tumanida – 97,6 %, Qo'rg'ontepa tumanida – 94,6 %, Ulug'nor tumanida – 93,1 %, Oltinko'l tumanida – 90,1 %, Izboskan tumanida – 72,1 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Asaka tumanida – 1,0 % ni tashkil etdi.

Buloqboshi	100,0
Jalaquduq	97,6
Qo'rg'ontepa	94,6
Ulug'nor	93,1
Oltinko'l	90,1
Izboskan	72,1
Shahrixon	68,3
Marhamat	67,6
Andijon	65,9
Paxtaobod	63,6
Bo'ston	63,6
Baliqchi	54,9
Xo'jaobod	39,9
Andijon sh	27,5
Xonaobod sh	10,0
Asaka	1,0


# 2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




93,9%

Yuk  
tashishda




69,2%

Yuk  
aylanmasida



96,9%

Yo'lovchi  
tashishda



95,9%

Yo'lovchi  
aylanmasida

2023- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,0** % ni tashkil etdi. 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,7** % ni tashkil qildi.


2023- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **66,1** % ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,0** % ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,2** % ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,2** % ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,5** % ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,7** % ni tashkil qildi.

# Kichik korxonaga va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2023- yil I- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil I- chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonaga va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 050** ta kichik korxonaga va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **392 (37,3 %)**tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **525 (50,0 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **133 (12,7%)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **36,4 % (382 ta)**, xizmatlar sohasida – **26,6 % (279 ta)**, sanoatda – **22,1 % (232 ta)**, qurilishda – **9,8 % (103 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **5,1 % (54 ta)**ni tashkil etdi.


## 2023- yil I- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi





# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023- yil I- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Andijon shahri (339 ta), Asaka (85 ta), Andijon tumani (78 ta), Marhamat tumani (65 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning I- choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **46,8** %ni, xizmatlar sohasida – **24,7** % ni, sanoatda – **18,2** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **41,1** % ni, xizmatlar sohasida – **27,1** % ni, sanoatda – **20,9** % ni, qurilishda – **7,1** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **32,3** %ni, sanoatda – **28,5** %ni, xizmatlar sohasida – **23,1** %ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	37,6	56,4	7,8
Band bo'lganlar soni	17,9	77,8	5,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	32,1	61,7	6,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	29,7	66,0	7,3
Raqobat muhiti	36,1	56,4	4,5

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	42,7	59,1	4,2
Band bo'lganlar soni	23,1	70,9	3,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	31,3	63,2	3,9
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	31,6	66,2	4,7
Raqobat muhiti	39,7	56,3	3,3


\* Faqat raqobat muhitiga tegishli

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning I- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



\* Faqat raqobat muhitiga tegishli